

AYRIM O‘ZBEK FRAZEOLOGIZMLARI TARKIBIDAGI ARABCHA
LEKSEMALARNING IZOHLARI

Orifjonova Sarvinoz

Namdp i o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi UZB-AU-25 magistri
abreriorifjonov44@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tiliga o‘zlashgan va hozirgi kunda nutqda faol qo‘llanadigan ayrim arabiy frazeologik leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *olinma so‘zlar, ibora, leksema, etnik qatlam, leksik sath, frazeologizm va boshqalar.*

Dunyoda hech bir til yo‘qki, tashqi manbaa (olinma so‘zlar) orqali boyimasa, ko‘paymasa. Har bir tilning rivojlanib, ravnaq topishida tashqi omillarning o‘rni beqiyosdir. Til - ijtimoiy hodisa. U jamiyatda kishilarning aloqa-axborot almashinuv jarayonida shakllanadi. Qaysi xalqning etnik qatlamida turli millatga mansub aholi mavjud bo‘lsa, o‘sha jamiyatda nafaqat milliy, balki boshqa tillarning leksik-fonetik unsurlari ham shakllanadi. Masalan, Janubiy Amerika mamlakatlaridagi davlatlarda o‘zaro so‘zlashuv nutqida milliy tillar bilan birgalikda ispan tili, portugal tillari ham teng munosabatda qo‘llaniladi.

O‘rta Osiyo hududida qadimdan o‘zbek, tojik, turkman, qirg‘iz, qozoq va boshqa xalqlar birgalikda yashab kelishgan. Hudud va dinning umumiyliigi xalq tillarining o‘zaro yaqinlashuviga ham sabab bo‘lgan. VIII asrda arablar bosqini va islom dinining kirib kelishi natijasida arab tili va adabiyoti ham kirib kelgan. Aholi o‘rtasida arab tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtyoj ham ancha o‘sgan. Eng mashhur islom madrasalari: Bag‘doddagi „Bayt ul-hikma“, „Dorul hikma va maorif“ larda ham ilm tili arab tili hisoblangan. Tilning leksik sathi yangidan yangi atamalar bilan boyib borgan. Masalan, maktab, kutubxona, madrasa, dars, ilm, olim, tarix va hokazo.

Hozirgi o‘zbek tilining leksik sathi juda boy. O‘zbek tili uch xil manbaa orqali boyiydi. Ular quyidagilar:

1. Ilgari qo‘llanilib, hozirda o‘z atash ma‘nosini yo‘qotgan so‘zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish orqali. Masalan, viloyat, tuman, hokim va boshqalar.

2. Shevalardan ma'lum so'zlarni ma'nosini maxsuslashtirib, adabiy tilga qabul qilish orqali. Masalan, „mengzamoq” fe'li Xorazm dialektida „o'xshamoq” degan ma'noni anglatadi.

3. Boshqa tillardan so'z olish orqali.ⁱ

Hozir o'zbek tili ayrim frazeologizmlari tarkibidagi arabcha leksemalarni ko'rib chiqamiz:

1. Vahimaga tushmoq. „qo'rqqan holda o'ylanib qolmoq “ degan ma'noni anglatadi. Vahima (arabcha – وحي vahiy mun qo'rquv, tahlika) his-tuyg'u va kayfiyatning buzilishi, qo'rquv bosish degan ma'nolari mavjud. Dadam NKVD hodimlarini ko'rib, vahimaga tusha boshladilar. (O.Yoqubov „Muzqaymoq” hikoya).

2. Kalava uchini topmoq. „O'ylagan narsasi amalga oshmoq” degan ma'noni anglatadi. Kalava (arabcha-كلو kalavau o'ram, dumaloqlangan ip, to'r) charxga bir necha marta tekis qilib o'ralgan va charxdan chiqarib olib, taxlangan biro o'ram ip, ipak. Ha endi tushundim, kalavaning uchi bu yoqda ekan. (P.Qodirov „Erk” qissasi).

3. Lafzida turmoq. „aytgan gapining ustidan chiqmoq, biror-bir ish bajarish uchun qilingan kelishuvga rioya qilmoq ” degan ma'noni anglatadi. Lafz (arabcha – لفظ lafzun talaffuz ;so'z, ibora) so'z, kalima, til. Nomard Dilovarxo'ja, lafzida turmasdan bizni ham sotdi. (Shuhrat „Oltin zanglamas” romani).

4. Ta'zirini bermoq. „adabini bermoq, tartibga chaqirmoq” degan ma'noni bildiradi. Ta'zir (arabcha – تـعـزـير ta:ziyrun jazolash, ayblash, qoralash, tanbeh berish degan ma'nolarni ifodalaydi) o'tgan xato yoki gunohlarga loyiq dakki, dashnom, tanbeh berish. Men sehrli qalpoqcham bilan Soraxon folbin va uning arzandasi Mirobiddinxo'jani boplab ta'zirini berdim. (X.To'xtaboyev „Sariq devni minib” romani).

5. Fig'oni falakka chiqmoq. „ruhan ortiq darajada bo'g'ilib, oh-voh qilmoq” degan ma'noni bildiradi. Fig'on (arabcha- فـؤـانـ fig'aanun baqiriq, dod-voy; faryod, yig'i degan ma'nolarni bildiradi) qattiq xafa bo'lish, qayg'urish, g'am-alam chekish tufayli yuz beradigan yig'i- sig'i; nola, faryod.ⁱⁱ Tong qorong'usidan kampir xamir qoridi, og'ilxonaga kirib qarasa, ho'kiz bog'log'liq joyida yo'q. Uning erta tongda fig'oni falakka chiqdi. (A.Qahhor „O'g'ri” hikoyasi).

7. Jahli chiqmoq. „kayfiyatiga zarar yetkazuvchi biror holat yuz bermoq” degan ma'noni anglatadi. Jahl (arabcha- jahlun nodonlik; aqlsizlik; jaholat) nojo'ya xatti-harakatdan, gapdan, yoki voqea-hodisadan ranjish, achchiqlanish, g'azablanish tuyg'usi; g'azab. Muharrir jahli chiqib, kalendarni shart-shart varaqladi-da, bitta betini yulib oldi. (O'. Usmonov „Sirli sohil”).

8. Boshidan zar sochmoq. „aytgan orzu-istaklarini ro'yobga chiqarmoq” degan ma'noni bildiradi. Zar (arabcha- zarun oltin degan ma'noni bildiradi) qimmatbaho buyum, tilla. Siz

xohlasangiz agar, Boshingizdan sochay zar. (H.Olimjon „Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostoni).

Har go’zal mavzuning yakuni bo’lgani kabi, ilmiy-ijtimoiy qarashlarim so’nggida shuni ta’kidlamoqchiman, til – millat tarjimoni, uni asrab-avaylab, sayqallab o’zimizdan keying avlodlarga yetkazishimiz bizning eng muhim vazifamizdir. Inson vijdoni kabi tilni ham sof saqlashi, bulg’amasligi lozim. Zero, ilm ummonidan dur termoq uchun mashaqqatli mehnat va tinimsizlik muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1., „O’zbek tilining izohli lug’ati” 5 jild.
- 2., „Hozirgi o’zbek tili” R.Sayfullayeva.
- 3., „Tilshunoslikka kirish” Sh.Rahmatullayev.

ⁱ „Hozirgi o’zbek tili” R.Sayfullayeva

ⁱⁱ „O’zbek tilining izohli lug’ati”